

**MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI MUSIQA RAHBARLARINING
KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH JARAYONINING
METODIK MODELI**

Amanova Durdona Kaxramonovna

*Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va
mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning
malakasini oshirish instituti katta o’qituvchisi*

A

**n
n
o
t**

a **Kalit so’z:** Musiqiy faoliyat, pedagogik ijodkorlik, pedagogik tajriba, musiqiy teptuar, bolalar cholg’ulari, musiqiy qobiliyat, atrubutlar.

s

i Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim tizimidagi islohotlar, innovatsion y’zgarishlar, uni xalqaro standartlarga integratsiyalash, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, ta’lim sifat va samaradorligini oshirish yo‘lida ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari uchun katta mas’uliyat yuklab, yangi avlodni voyaga yetkazish maqsadida pedagoglar oldida ulkan vazifalarni qo‘ymoqda.

M Ma’lumki, inson oldida muayyan muammo turgandagina, u ijod qilishga ehtiyoj sezadi. Musiqa rahbari faoliyati ana shunday ijodkorlikni talab qiladi. Pedagogik ijodkorlikning asosiy mohiyati musiqa rahbari faoliyatining maqsadi va xarakteri bilan bog‘liq. Pedagogik faoliyat ta’lim oluvchilar shaxsi, dunyoqarashi, e’tiqodi, ongi, qulq-atvorini shakllantirishdek umumiyl maqsadga qaratilgan ko‘plab pedagogik masalalarni yechishdan iborat harakatdir. Musiqa rahbari faoliyatidagi ijodkorlik ana shu masalalarni yechish usullari, ularni hal qila olish yo‘llarini qidirib topishda namoyon bo‘ladi.

n Pedagogik ijodkorlikning manbai pedagogik tajribadir. Pedagogik tajriba – gnuammoli vaziyatlarni qo‘ya olish va ularni tarbiyalanuvchilar bilan hamkorlikda yechishda namoyon bo‘ladi. Bunda har bir maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogi ja’lim texnologiyalaridan unumli foydalana olishi zarur¹.

u Musiqa rahbarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda tajribali mutaxassislar tomonidan beriladigan maslahatlar, o‘tkaziladigan davra suhbatlari, a

¹ М.Н.Хушназарова. Мактабгача таълим ташкилотлари тарбиячиларининг касбий компетенциясини тақомиллаштириш. п.ф.ф.д. (PhD) илмий даражасини олиш учун дисс.-Тошкент: МТРМҚТМОИ, 2021.-1756.

a

www.pedagogs.uz

t

ijodiy uchrashuvlar alohida ahamiyatga ega. Musiqa rahbarlarini pedagogik faoliyatga tayyorlashda ularning kasbiy kompetensiyasini nazorat qilish va baholash muhim ahamiyatga ega. Ob'yektiv nazorat va baholash bo‘lajak musiqa rahbarlarining kasbiy rivojlanishini jadallashtirish imkonini beradi. Musiqa rahbarlarining kasbiy ko‘nikma va malakalarini mustahkamlash bilan bir qatorda ularning pedagogik faoliyatini tashxislash orqali yutuq va kamchiliklarini aniqlash, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilish imkoniyatlarini izlab topishdan iborat. Bunda, birinchi navbatda, musiqa rahbarlarining kasbiy kompetensiyasini shakllanganlik darjasini tekshiriladi va baholanadi.

Musiqa rahbarlarining kasbiy kompetensiyasining shakllanganlik darjalarini nazorat qilishni quyidagi 3 yo‘nalishda amalga oshirish mumkin:

- a) Tezkor nazorat;
- b) Taktik (oraliq) nazorat;
- v) Strategik (yakuniy) nazorat.

Ma’lumki, musiqa rahbarlarining kasbiy kompetensiyasining an’anaviy texnologiyasi ular faoliyatini nazorat qilish, baholash va uning natijalari negiziga quriladi. Bu etalon psixologik-pedagogik tahlil asosida aniqlanadi. Joriy etilgan mezonlar asosida musiqa rahbari faoliyatining quyidagi jihatlari baholanadi:

- musiqa rahbarining mashg‘ulotlarni tashkil etish va unga rahbarlik qilish darjasini;
- musiqiy mashg‘ulot jarayonida tarbiyalanuvchilarga musiqiy faoliyat turlarini to‘g‘ri tashkil eta olishi;
- mashg‘ulot mavzusiga mos keladigan musiqiy asarlarni tanlay olishi;
- mashg‘ulotlarda didaktik prinsiplarga tayanib, muammoli vaziyatlarni tashkil eta olishi;
- mashg‘ulotlarda ko‘rgazmali, texnik vositalardan samarali foydalana olishi;
- tarbiyalanuvchilarning bilish faolligi, qiziqishlarini hisobga olgan holda musiqiy repertuarning murakkablik darjasini aniqlay olishi;
- tarbiyalanuvchilar ijodiy imkoniyatlarini faollashtirish va rivojlantirish, nostandart vaziyatlarda tarbiyalanuvchilar bilan muloqotga kirisha bilish;
- o‘zining ichki hissiyotlarini namoyon eta olishi;
- kasbiy muloqot jarayonida oldindan rejalshtirilmagan usullardan foydalana bilish;
- musiqiy asar mazmunini mantiqiy izchillikda bayon eta olish, imo-ishora, mimikadan o‘rinli foydalanish, o‘z fikrlarini bayon etishlari uchun tarbiyalanuvchilarga qulay sharoit yaratishi;
- mashg‘ulotlar jarayonida musiqa rahbarlarining aktyorlik mahorati, notiqlik qobiliyatlaridan o‘rinli foydalanishlari;
- pedagogik mahoratning o‘ziga xos jihatlarini namoyon eta bilishlari;
- kasbiy madaniyatlilikni namoyon qila olishi;

- bolalar bilan insonparvarlik munosabatlarini o‘rnatish, har bir tarbiyalanuvchiga o‘z imkoniyatlarini ko‘rsatish uchun yetarli sharoit yaratma olishi;
- o‘z-o‘zini nazorat qilishi va boshqara olishi;
- innovatsion fikrlash ko‘nikmalarini egallaganlik darajasi;
- pedagogik fikrlash madaniyati mujassamlashganligi.

Musiqa rahbarlarida kasbiy kompetensiyasini shakllanganlik darajasini nazorat qilish va baholash tadrijiy asosda murakkablashib boradigan pedagogik hodisa sanaladi. Kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish bosqichma-bosqich amalga oshirilishini inobatga olgan holda, musiqa rahbarlarining kasbiy rivojlanish darajalarini nazorat qilish va baholash kasbiy faoliyat tajribasini o‘zlashtirishi, uning murakkabliklarini tushuna bilishi va yechimini topishi bilan belgilanishi kerak.

Yuqoridagi ko‘rsatkichlar musiqa rahbarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlanganligini muayyan darajada ifodalaydi. Shuningdek, musiqa rahbarlarida bir qator sifatlar ham shakllangan bo‘lishi lozim. Ularga:

- kasbiy bilimdonlik;
- pedagogik yondashuvlarni o‘zlashtirganlik;
- ijrochilik mahorati;
- kasbiy faoliyatga ijodiy yondashish kabilari.

Bunda musiqa rahbarlarining kasbiy kompetentlilik darajasini nazorat qilish alohida ahamiyatga ega. Shu tariqa musiqa rahbarlarining kasbiy kompetensiyasi darajasini nazorat qilish va ularni o‘z-o‘zini nazoratga o‘rgatish, o‘z faoliyatlarini tahlil qilish va baholash ko‘nikmalarini shakllantirish uchun maxsus seminarlar, davra suhbatlari, treninglar, ijodiy kechalar tashkil etish lozim. Buning uchun:

- musiqa rahbarlarining mashg‘ulotlarni loyihalashga oid bilimini boyituvchi ma’lumotlarni o‘rganish va tahlil qilish;
- musiqa rahbarilarning bilish faolligini rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar;
- maktabgacha ta’limga qo‘yilgan davlat talablari asosida bolalarni rivojlantiruvchi musiqiy faoliyat turlari uchun musiqiy repertuar va ta’limiy vositalarni to‘g‘ri tanlashga o‘rgatadigan seminarlar;
- mashg‘ulotlar jarayonida bolalarning tashabbuskorligi, mustaqilligini, musiqiy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga o‘rgatuvchi amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazishni tavsiya qilamiz.

MTT musiqa rahbarlarini kasbiy kompetensiyasini shakllantirishga yo‘naltirilgan ilg‘or pedagogik texnologiyalar

Pedagogik texnologiya turi	Maqsadi	Mohiyati	Mexanizmi

Muammoli ta’lim	Maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi va har qanday holatga mustaqil yondashishga tayyorlaydi	Maktabgacha yoshdagi bolalarga tizimlilik va maqsadli ravishda ijodiy faollikni shakllantirishga yo‘naltirilgan mauammolar yuzasidan fikr-mulohazani olib borish	Maktabgacha yoshdagi bolalarni qiziqtiradigan va faolligini oshirishga yo‘naltirilgan metodlardan samarali foydalanish
Mujassam lashtiril gan o‘qitish	Maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqani his qilish xususiyatlariga maksimal darajada yaqinlashtirilgan ta’lim jarayonini tashkil etish	Musiqiy faoliyat turlarini qismrlarga biriktirish hisobiga maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodiy rivojlantirishiga erishish	Maktabgacha yoshdagi bolalarning kasblar bo‘yicha qobiliyatini aniqlashga yo‘naltirilgan ta’lim metodlarini qo‘llash
Modulli ta’lim	Ta’lim mazmunini shaxs individual ehtiyojlari va uning yosh xususiyatlariga muvofiqlashtirish	Maktabgacha yoshdagi bolalarda mustaqil ishslash ko‘nikmalarini shakllantirish va faolligini oshirish	Muammoli yondashuvni amalga oshirishning individual imkoniyatlari
Rivojlan tiruvchi ta’lim	Maktabgacha yoshdagi bolaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish	Mashg‘ulot jarayonini potensial imkoniyatlari va ularni amalga oshirishga yo‘naltirish	Maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatini turli sohalarga yo‘naltirish
Differen sial ta’lim	Maktabgacha yoshdagi bolalarning layoqati, qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash uchun shart-sharoitlar yaratish	Turli o‘zlashtirish darajalari bo‘yicha majburiy me’yor (standart)dan kam bo‘limgan hajmdagi dastur materialini o‘zlashtirish	Maktabgacha yoshdagi bolalarni individual ta’lim metodlari orqali intellektual qobiliyatini shakllantirish. Ijtimoiy faolligini oshirishga yo‘naltirilgan ilg‘or metodlardan samarali foydalanish
Faol (majmua viy) o‘qitish	Maktabgacha yoshdagi bolalar faolligini tashkillashtirish	Musiqqa rahbarlarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishning predmetli va ijtimoiy mazmunini modellashtirish	Maktabgacha yoshdagi bolalarni qiziqtiradigan va faolligini oshirishga yo‘naltirilgan metodlardan

			samarali foydalanish, faol o‘qitish metodlari
O‘yin texnologiyasi	Ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiriladi, musiqiy qobiliyatlarini rivojlantiriladi	Maktabgacha yoshdagagi bolalarni ixtiyoriy ravishda ishtirok etishlari orqali ularni ijodiy fikrlashga undaydi, mashg‘ulotda faol ishtirok etish imkoniyatini yaratadi, bilimi, tasavvuri va dunyoqarashi ijodiy yondashuv asosida rivojlanadi	Maktabgacha yoshdagagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda o‘yin metodlari

Musiqa rahbarlarining kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarga ega bo‘lishida uning jamiyatni taraqqiy ettirish haqidagi tasavvurlari, bola shaxsi, fan va madaniyat, istiqboldagi kasbiy kompetensiyalari haqidagi muayyan bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi, kommunikatsiya vositalaridan o‘z o‘rnida foydalana olishi, o‘zining kasbiy faoliyati bilan o‘z bilim va mahoratiga qanday erishishi mumkinligini bilish, innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish maqsadli sanaladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida maktabgacha yoshidagi bolalarga ta’lim berishda musiqa raxbarlarining mashg‘ulotlarga kompetensiyaviy yondashuvi mazmunida tarbiyalanuvchilarning individual faoliyatları rag‘batlantiriladi, egallagan bilimlarini amaliyotda qo‘llashga ko‘maklashiladi. Mustaqil raqsga tushish, qo‘sish quylash, sahnada o‘zini tuta olishi, bolalar cholg‘ularida chala olish shular jumlasidandir. Bolalar ushbu bilim, ko‘nikma, malakalarni o‘zlashtirish orqali yanada mustaqil faoliyatga ega bo‘ladilar.

Kompetensiyaviy yondashuv natijasida amaliy ko‘nikma, malakalarni shakllantirishga ustuvor ahamiyat qaratiladi. Bilimlar esa ushbu ko‘nikma va malakalarning asosini tashkil qiladi. Kompetensiyaviy yondashuvning asosiy xususiyatlaridan biri o‘quv materiallari sermahsulligini ta’minlashdan iborat. Ikkinchisi, o‘quv materiallarini modul shaklida bayon etish orqali bolalarda bolalarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, faollik ko‘nikmalarini shakllantirish nazarda tutiladi.

Musiqa mashg‘ulotlari oldiga qo‘yilgan pedagogik maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun, avvalo, bolalarning musiqiy uquvi va qobiliyatlarini muntazam ravishda o‘stirib borish lozim. Musiqiy uquv va qobiliyatlarini quyidagi faoliyatlardan iborat:

- musiqiy uquvi (musiqiy tovushlar baland-pastligini his etish qobiliyati);
- tembr uquvi (musiqiy tovushlarni bir-biridan farq qilish);
- ritm tuyg‘usi (musiqaga mos harakat bajarish, qadam tashlab, chapak chalib musiqani xotirada saqlab, his etish va ifodalash).

Musiqa rahbarining uslubiy tayyorgarligida pedagogik o‘yinlar va pedagogik loyihalash alohida e’tiborga ega. Musiqa rahbari muloqot qilishni o‘rganishi, ijrochilik faoliyati bilan bog‘liq mahoratini taqsimlashni, ta’limga qo‘yilgan maqsad natijalarini oldindan ko‘ra bilishi lozim. Pedagogik jarayonni tashkil etish va uning muvaffaqiyatli kechishini aynan loyihalash ta’minlaydi. Loyihalashda o‘quv dasturlari, rejasi, musiqiy faoliyat turlari, uslubiy tavsiyalar va boshqa o‘quv qo‘llanmalar muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi (takomillashtirilgan nashri) 2022 yil.
2. N.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Sayfurov, A.To‘rayev “Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari”. O‘quv metodik qo‘llanma - Toshkent, 2015y.
3. I.B.Matyakubov. “Bo’lajak musiqa musiqa rahbarilarining amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish” nomli dissertatsiya ishi. Toshkent 2021 yil.
4. M.N.Xushnazarova. “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish” nomli dissertatsiya ishi. Toshkent 2021 y.
5. Sh.S.Sharipova. “Innovatsion ta’lim muhitida rivojlantiruvchi treninglar orqali musiqa rahbarining kasbiy kompetentligini oshirish” nomli dissertatsiya ishi. Toshkent 2020 y.
6. S.T.Turg‘unov, B.X.Daniyarov, M.A.Umaraliyeva, Sh.S.Shodmonova, Sh.M.Turg‘unova, H.M.Tojiboyeva. “Musiqa rahbarilarning kasbiy mahorat va kompetentligini rivojlantirish”, Toshkent, “Sano-standart” nashriyoti, 2012 y.
7. Anna Ehrlin, Hans-Olof Gustavsson. The Importance of Music in Preschool Education. Australian Journal of Teacher Education. 2015 y. <http://ro.ecu.edu.au/ajte>.